# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmi 20 222,0 mlrd. so‘mni yoki 2023 yilning shu davriga nisbatan 1,2 foizga o‘sdi, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 19 765,6 mlrd. so‘mni (101,2 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 0,2 mlrd. so‘mni (100,9 %), o‘rmon xo‘jaligida 253,1 mlrd. so‘mni (103,6 %), baliqchilik xo‘jaligida 203,1 mlrd. so‘mni (101,5 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir.

Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari G‘allaorol (105,2 %), Baxmal (104,9 %), Yangibod (103,0 %) va Forish (102,3 %) tumanlarida kuzatildi. O‘z navbatida Do‘stlik (93,5 %) va Mirzacho‘l tumanida (96,5 %) nisbatan past o‘sish sur’atlari kuzatildi.



**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tarkibiy tuzilishida eng yuqori ulush dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi (umumiy hajmga nisbatan 70,8 foiz).

**Dehqonchilik.** 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 6 902,3 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 93,4 foizni, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida ulushi 35,2 foizni tashkil qildi.

**Hosilni yig‘ib olish**. Hisobot davrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda 616 676,0 tonna (o‘tgan yilga nisbatan 104,8 %) jami don, 545 603 tonna (104,5 %) boshoqli don, 473 329 tonna (105,5 %) bug‘doy, 34 195 tonna (112,5 %) makkajo‘xori, 60 974 tonna (111,3 %) kartoshka, 322 760 tonna (104,5 %) sabzavotlar, 206 575 tonna (104,1 %) oziqbop poliz, 69 008 tonna (104,9 %) mevalar va rezavorlar, 21 737 tonna (103,2 %) uzum yig‘ib olindi.



**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *Shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* |
| Don jami | 616 676 | 104,8 | 552 622 | 107,0 | 16 292 | 108,3 | 47 762 | 83,7 |
| Boshoqli don | 545 603 | 104,5 | 493 403 | 106,2 | 10 296 | 102,4 | 41 904 | 88,0 |
| shundan: bug‘doy | 473 329 | 105,5 | 436 107 | 107,8 | 6 658 | 102,9 | 30 564 | 81,2 |
| makkajo‘xori don uchun | 34 195 | 112,5 | 27 602 | 130,0 | 5 237 | 113,7 | 1 356 | 29,8 |
| Kartoshka | 60 974 | 111,3 | 24 456 | 126,7 | 36 201 | 102,8 | 317 | 119,6 |
| Sabzavotlar-jami | 322 760 | 104,5 | 125 567 | 103,2 | 189 551 | 105,4 | 7 642 | 106,2 |
| Poliz – jami | 206 575 | 104,1 | 96 711 | 110,9 | 86 155 | 104,0 | 23 709 | 83,6 |
| Mevalar va rezavorlar-jami | 69 008 | 104,9 | 26 278 | 98,6 | 39 143 | 103,1 | 3 587 | 3,2 m. |
| Tokzorlar | 21 737 | 103,2 | 6 655 | 103,1 | 14 885 | 104,3 | 197 | 59,7 |



## 2024 yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



### HUDUDLAR BO‘YICHA DON YETISHTIRISH








## HUDUDLAR BO‘YICHA MAKKAJO‘XORI, DON UCHUN YETISHTIRISH




### Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Makkajo‘xori don yetishtirishning eng katta hajmi 34,2 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 80,7 foizi fermer xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 1,4 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 4,0 foizi qishloq xo‘jaliklari tashkilotlarida kuzatildi.

2024 yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 30,0 foiz, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 13,7 foizga o‘sish kuzatildi.



# HUDUDLAR BO‘YICHA KARTOSHKA YETISHTIRISH

| Hajmi *(ming tonna)* | Kartoshka | Viloyatning umumiy hajmga nisbatan ulushi, % da |
|---|---|---|
| 0,2 | Forish | 0,4 |
| 0,8 | Jizzax sh. | 1,3 |
| 1,2 | Do‘stlik | 1,4 |
| 1,2 | Yangiobod | 1,9 |
| 1,3 | Paxtakor | 2,0 |
| 1,4 | Zomin | 2,1 |
| 1,6 | Arnasoy | 2,3 |
| 2,6 | Sh.Rashidov | 2,6 |
| 2,9 | Zafarobod | 4,3 |
| 3,7 | Zarbdor | 4,7 |
| 3,8 | Mirzacho‘l | 5,9 |
| 17,5 | Baxmal | 28,7 |
| 25,8 | G‘allaorol | 42,2 |

## Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi 36,2 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 59,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 0,3 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 0,5 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan kuzatildi.

2024 yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 26,7 foiz, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 2,8 foizga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA SABZAVOTLAR YETISHTIRISH

| Hajmi *(ming tonna)* | | Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulush, % da |
|---|---|---|
| 6,7 | Jizzax sh. | 2,1 |
| 7,7 | Yangiobod | 2,4 |
| 8,6 | Forish | 2,7 |
| 9,8 | Arnasoy | 3,0 |
| 10,1 | Mirzacho‘l | 3,1 |
| 10,5 | Zafarobod | 3,3 |
| 20,6 | Do‘stlik | 6,4 |
| 26,9 | Paxtakor | 8,3 |
| 27,2 | Baxmal | 8,4 |
| 33,6 | Zomin | 10,4 |
| 35,6 | Zarbdor | 11,0 |
| 36,3 | Sh.Rashidov | 11,2 |
| 89,2 | G‘allaorol | 27,7 |

### Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Savzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 189,6 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 58,7 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 7,6 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,4 foizi qishloq xo‘jaligi korxonalarida kuzatildi.

2024 yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 3,2 foizga, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 5,4 foizga o‘sish kuzatildi.

**Chorvachilik.** Chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan tizimli qo‘llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o‘sishiga, ichki iste’mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to‘yinishiga imkon yaratildi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 12 693,0 mlrd. so‘mlik chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘sish sur’ati 2023- yilning shu davriga nisbatan 106,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 64,8 fozni tashkil etdi.

2024- yilning 1-oktabr holatiga viloyatdagi yirik shohli qoramollar bosh soni 977,4 mingtani (o‘sish sur’ati 101,9 %), shu jumladan sigirlar bosh soni 279,1 mingtani (101,6 %), qo‘y va echkilar bosh soni 2 427,5 mingtani (103,3 %), otlar bosh soni 31,3 mingtani (102,1 %) va parrandalar bosh soni 38 983,7 mingtani (92,4 %) tashkil qildi.



**2024- yil 1-oktabr holatiga xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | Barcha toifadagi xo‘jaliklar | | Shu jumladan: | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Fermer xo‘jaliklari | | Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | | Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
| | bosh soni | o‘sish sur’ati, foizda | bosh soni | o‘sish sur’ati, foizda | bosh soni | o‘sish sur’ati, foizda | bosh soni | o‘sish sur’ati, foizda |
| Yirik shoxli qoramollar | 977 454,0 | 101,9 | 63 158 | 104,9 | 876 873 | 101,5 | 37 423 | 105,1 |
| Sigirlar | 27 9148 | 101,6 | 20 644 | 115,3 | 244 057 | 100,4 | 14 447 | 104,9 |
| Qo‘y va echkilar | 242 7552 | 103,3 | 450 917 | 103,4 | 1 592 565 | 100,2 | 384 070 | 118,1 |
| Otlar | 3 1282 | 102,1 | 7 957 | 102,2 | 17 809 | 100,6 | 5 516 | 107,4 |
| Parrandalar | 389 8370 | 92,4 | 304 162 | 93,4 | 1 882 214 | 102,7 | 1 711 994 | 83,1 |

Umumiy bosh soniga nisbatan dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 89,7 foizni, fermer xo‘jaliklarida 6,5 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 87,4 va 7,4 foizni, qo‘ylar va echkilar 65,6 va 18,6 foizni, parrandalar 48,3 va 7,8 foizni tashkil qildi.



# HUDUDLAR BO‘YICHA YIRIK SHOHLI QORAMOLLAR YETISHTIRISH

Yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G‘allarol tumaniga (17,5 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Baxmal (17,1 %) va Zomin (12,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonidagi eng past ulush Jizzax shahri (1,4 %) va Do‘stlik tumani (4,1 %) da kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023- yil yanvar-sentabriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari G‘allarol (103,6 %) va Baxmal (103,6 %) tumanlarida qayd etildi.




**Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 977,5 mingtaga etdi.

- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2023- yil 1-oktabrga nisbatan 18,2 mingtaga (1,9 %) ko‘paydi.

- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 89,7 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 4,9 foiz, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 5,1 foizga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA SIGIRLAR YETISHTIRISH

Sigirlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Baxmal tumaniga (16,6 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (14,7 %) va Zomin (13,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, sigirlarning umumiy bosh sonidagi eng past ulush Jizzax shahri (1,4 %) va Mirzacho‘l tumanida (4,1 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-sentabriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Arnasoy tumani (104,5 %) va Zarbdor tumanida (104,5 %) qayd etildi.




**Sigirlar jami bosh soninig xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy boshsoni 279,1 mingtaga yetdi.
- sigirlar bosh soni 2023- yil 1-oktabrga nisbatan 4,4 mingtaga (1,6 %) ko‘paydi.
- sigirlar bosh soning 87,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 15,3 foizga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA QO‘YLAR VA ECHKILAR YETISHTIRISH

Qo‘y va echkilar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumaniga (35,2 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (13,3 %) va Baxmal (12,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, qo‘y va echkilar umumiy bosh sonidagi eng past ulush Arnasoy tumani (1,3 %) va Jizzax shahrida (1,7 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-sentabriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Arnasoy (11,6 %) va Forish tumanlarida (6,2 %) qayd etildi.

| | Soni *(ming bosh)* |
|---|---|
| Arnasoy | 32,3 |
| Jizzax sh. | 42,2 |
| Do‘stlik | 44,7 |
| Paxtakor | 51,6 |
| Mirzacho‘l | 76,0 |
| Zarbdor | 80,2 |
| Yangiobod | 111,2 |
| Zafarobod | 119,2 |
| Sh.Rashidov | 179,0 |
| Zomin | 209,5 |
| Baxmal | 308,3 |
| G‘allaorol | 321,4 |
| Forish | 852,0 |

**Qo‘ylar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilarning umumiy boshsoni 2 427,6 mingtaga etdi.

- qo‘y va echkilar bosh soni 2023- yilning 1-oktabriga nisbatan 76,4 mingtaga (3,3 %) ko‘paydi.

- qo‘y va echkilar bosh soning 65,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 3,4 foizga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA PARRANDALAR YETISHTIRISH

Parrandalar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G‘allaorol tumani hissasiga (31,8 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Zomin(10,9 %) va Sharof Rashidov (10,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, parrandalar umumiy bosh sonidagi eng past ulush Yangiobod (1,3 %) va Do‘stlik (1,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-sentabriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’ati Zomin tumanida (121,6 %) qayd etildi.




**Parrandalar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- Parrandalarning umumiy bosh soni 3 898,4 mingtani tashkil qildi.

- Parrandalar bosh soni 2023- yil 1-oktabrga nisbatan 320,1 mingtaga (92,4 %) kamaydi.

- Parrandalar bosh sonining 48,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 6,6 foizga kamayish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA OTLAR YETISHTIRISH

Otlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumani hissasiga (29,1 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Sharof Rashidov (14,5 %) va Baxmal (10,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, otlarning umumiy bosh sonidagi eng past ulush Jizzax shahri (0,6 %) va Do‘stlik tumanida (0,8 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yil yanvar-sentabrga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Arnasoy tumani (179,3 %) va Jizzax shahrida (129,6 %) qayd etildi.




**Otlar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- Otlarning umumiy bosh soni 31,3 mingtaga etdi.
- Otlar bosh soni 2023- yil 1-oktabrga nisbatan 654,0 boshga (2,1 %) ko‘paydi.
- Otlar bosh sonining 56,9 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 2,2 foizga o‘sish kuzatildi.



## CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 12 693,0 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sura’ti 106,0 foizni tashkil qildi. Jami yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 64,8 foizni tashkil etdi.




Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli ko‘mak ko‘rsatib kelinayotganligi chorva mollari va parrandalari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vaznda 175,9 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 6,6 foizga o‘sdi), 499,8 ming tonna sut (4,9 %), 276,9 mln. dona tuxum (-11,1 %) va 3 876 dona qorako‘l teri (1,0 %) yetishtirilib, 9 249,7 tonna baliq (0,8 %) ovlandi.



**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *Shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* |
| Go‘sht, tirik vaznda, tonna | 175 865,0 | 106,6 | 3 140,0 | 106,6 | 165 642,0 | 106,1 | 7 083,0 | 118,0 |
| Sut, ming tonna | 499 815,0 | 104,9 | 13 279,0 | 115,8 | 482 809,0 | 105,0 | 3 727,0 | 67,9 |
| Tuxum, ming dona | 276 915,0 | 88,9 | 20 100,0 | 134,6 | 150 940,0 | 100,2 | 105 875,0 | 72,5 |
| Qorako‘l teri, dona | 3 876,0 | 101,0 | 2 539,0 | 92,4 | 106,0 | 110,4 | 1 231,0 | 123,7 |
| Ovlangan baliq tonna | 9 249,7 | 100,8 | 724,0 | 60,7 | 2 008,1 | 102,6 | 6 517,6 | 108,2 |



## HUDUDLAR BO‘YICHA GO‘SHT YETISHTIRISH

| Hajmi *(ming tonna)* | | Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da |
|---|---|---|
| 3,5 | Jizzax sh. | 2,0 |
| 4,7 | Yangiobod | 2,7 |
| 5,3 | Mirzacho‘l | 3,0 |
| 7,8 | Arnasoy | 4,4 |
| 8,1 | Zarbdor | 4,6 |
| 8,4 | Paxtakor | 4,8 |
| 9,2 | Zafarobod | 5,2 |
| 13,6 | Do‘stlik | 7,7 |
| 14,8 | Forish | 8,4 |
| 18,3 | Sh.Rashidov | 10,4 |
| 22,5 | Zomin | 12,8 |
| 25,3 | G‘allaorol | 14,4 |
| 34,4 | Baxmal | 19,6 |

**Jami go‘sht yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida go‘sht yetishtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, go‘sht yetishtirishning eng katta hajmi 165,6 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 94,2 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etilganligini ta’kidlash lozim.

Ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, go‘sht yetishtirishning eng kam hajmi 3,1 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 1,8 foizi fermer xo‘jaliklarida kuzatildi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-sentabrida fermer xo‘jaliklarida 6,6 foizga, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 6,1 foizga, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 18,0 foizga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA SUT YETISHTIRISH




### Jami sut yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida sut yetishtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, sut yetishtirishning eng katta hajmi 482,8 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 96,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Ko‘rsatib o‘tilgan davrda, sut yetishtirishning eng kam hajmi 3,7 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 0,7 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-sentabrida fermer xo‘jaliklarida 15,8 foiz o‘sish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 5,0 foiz o‘sish, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 32,1 foiz kamayish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA TUXUM YETISHTIRISH

**Hajmi** ***(mln. dona)***

**Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da**




**Jami tuxum yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024 yilning yanvar-sentabr oylarida tuxum yetishtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 150,9 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 54,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etilganligini ta’kidlash lozim.

Ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda tuxum yetishtirishning eng kam hajmi 20,1 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 7,3 foizi fermer xo‘jaliklarida kuzatildi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-sentabrida fermer xo‘jaliklarida 34,6 foiz, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,2 foiz o‘sish, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 27,5 foiz kamayish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA BALIQ YETISHTIRISH




### Jami baliq yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida baliq yetishtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, baliq yetishtirishning eng katta hajmi 6 517,6 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 70,5 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-sentabrida fermer xo‘jaliklarida 39,3 foiz kamayish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 2,6 foiz o‘sish, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 8,2 foiz o‘sish kuzatildi.